

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOJIBOYEVA MOHINUR SHERALI QIZI**

**“DONOLIK” VA “NODONLIK” KONSEPTLARINING  
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI  
MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO'K: 811.111`37:008  
811.512.133`37:008

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertatsion abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi**

“Donolik” va “nodonlik” konseptlarining lingvokulturologik tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida).....3

**Tojiboeva Mokhinur Sherali kizi**

Linguocultural study of the concepts of *wisdom* and *foolishness* (on the example of English and Uzbek).....25

**Тажибоева Мохинур Шерали кизи**

Лингвокультурологическое исследование концепта “*мудрость*” и “*глупость*” (на примере английского и узбекского языков).....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOJIBOYEVA MOHINUR SHERALI QIZI**

**“DONOLIK” VA “NODONLIK” KONSEPTLARINING  
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI  
MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3580 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universitetining veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyoneb» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umarova Nargizaxon Rustamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hoshimov G'anijon Mirzaahmedovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xudoyberganova Durdona Sidiqovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning «26» aprel 2025-yil soat 8<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (993873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (498 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «2» 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil «2» 04 dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.M.Muminov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

**M.T.Zokirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f. n., professor

**A.G.Sabirdinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida til va madaniyat munosabatlarining antropotsentrik yoʻnalishda tadqiq etilishi semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohalari doirasidagi tadqiqotlarni yanada jadallashtirdi. Xususan, lingvomadaniy aspektda turli xalqlarning madaniy olam manzarasida aks etuvchi qadriyatlar, turmush tarzi va anʼanalarining lingvistik talqinlarini konseptlar asosida oʻrganish koʻplab tilshunoslar eʼtiborini tortdi. Zero, til vositasida uzatiluvchi va qabul qilinuvchi axborot, yaʼni olam haqidagi barcha bilimlar inson ongida muayyan konseptual tuzilmalar shaklida toʻplanadi. Bu jihatdan til jamoalarining donolik va nodonlik haqidagi tasavvurlari asosida shakllangan konseptual olam manzarasining lisoniy olam manzarasida voqelanish imkoniyati masalasi juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur konseptlar doirasidagi har bir kognitiv tuzilmani aniqlash, ular haqida ingliz va oʻzbek milliy-madaniy ongida aks etuvchi lingvo-kognitiv bilimlar chegarasini belgilash alohida amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligining kognitiv yoʻnalishida muayyan konsept va uning konseptual tuzilmalarini lingvistik nuqtayi nazardan oʻrganish dolzarb muammolardan sanaladi, chunki konseptual maydonni tashkil etuvchi birliklar lisoniy hamjamiyat ongida aks etuvchi olamning konseptual, lisoniy, milliy-madaniy manzarasini kognitiv jihatdan toʻliq tavsiflash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv tilshunoslikda “konsept” tadqiqi ustuvorlik qilmoqda. Ayniqsa, ingliz hamda oʻzbek tillarida milliy va madaniy jihatdan farqlanuvchi, Sharq-u Gʻarb qadriyatlarini aks ettiruvchi dualistik tushunchalar sifatida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining kognitiv-semantik maydonini belgilash, bu maydon birliklarini lingvistik jihatdan tavsiflash, chogʻishtirilayotgan tillarda konsept voqelanishidagi umumiy va farqli jihatlarni zamonaviy tilshunoslik metodlari asosida tadqiq etish nazariy jihatdan dolzarblik kasb etadi.

Oʻzbek tilshunosligida keyingi yillarda lingvomadaniy tadqiqotlarda konsept muammosiga alohida eʼtibor qaratila boshlandi va bu yoʻnalishda koʻplab tadqiqotlar maydonga keldi. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda til konseptosferasidagi barcha konseptlar va ularning konseptual-lingvistik tuzilmalari toʻliq oʻrganilgan deb ayta olmaymiz. Xususan, bugunga qadar barcha tillarning olam manzarasidagi universal, milliy, madaniy va eng qadimiy tuzilmalaridan boʻlgan “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlari lingvomadaniy jihatdan ingliz va oʻzbek tillari qiyosida tadqiqot obyekt sifatida tanlanmagan. Insoniyat falsafasining tayanch tushunchasi boʻlgan “*donolik*” va “*nodonlik*”ning turli madaniyatlardagi talqini ikki til jamoasining koʻp asrlik tajribalarini, katta hajmdagi konseptual bilimlarini oʻzida mujassam etadi, shuningdek, bu tushunchalar har bir tilda oʻziga xos ifoda imkoniyatlari bilan qiziqarli tadqiqot predmeti boʻla oladi. Aytish mumkinki, “Oʻzbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh boʻlishi shart”<sup>1</sup>ligi tilshunoslar oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga koʻtarishdek ustuvor vazifalarni qoʻyadi. Shu jihatdan dunyoning barcha tillariga xos universal konseptlar doirasida *donolik* va *nodonlik* leksik dubletining semantik-funksional, kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ingliz va oʻzbek

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq soʻzi, 2017-yil 23-dekabr. – № 258 (6952).

tillari qiyosida o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari tarkibiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida ta'lim, tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Lingvomadaniyatshunoslik masalalari<sup>2</sup>, konseptlar va ularning nazariy tadqiqi<sup>3</sup>, konseptual tahlil metodologiyasi<sup>4</sup> xorijlik olimlardan V.fon Gumboldt, V.N.Teliya, V.A.Maslova, N.Alefirenko, V.N.Klokov, V.V.Krasnix, Z.K.Sobitova, N.D.Arutyunova, A.G.Vejbitskaya, V.I.Karasik, Y.S.Stepanov, I.A.Sternin, A.I.Zinovyeva, M.V.Pimenova tadqiqotlarida kuzatiladi. O'zbek tilshunosligida Sh.Safarov, A.E.Mamatov, O'.Q.Yusupov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova ishlarida muayyan darajada o'rganilgan<sup>5</sup>.

---

<sup>2</sup> Гумбольдт В. фон. Характер языка и характер народа // Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений – М.: Академия, 2001; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта-Наука, 2010; Клоков В.Т. Теоретическая и прикладная лингвистика. Вып.2. Язык и социальная среда. – Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2000; Красних В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурологий. – М.: Гнозис, 2002; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – 2-е изд., стер. – М.: Флинта-Наука, 2015.

<sup>3</sup> Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия: сб. статей / Под ред. Н.К.Рябцевой. – М.: Наука, 1993; Вежбицкая А. Семантические универсалии и базисные концепты / А.Вежбицкая. – М.: Языки славянских культур, 2011; Карасик, В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И. Карасик. – М.: Гнозис, 2004; Степанов, Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Академический проект, 2001.

<sup>4</sup> Никитина С.Е. Концептуальный анализ в народной культуре // Логический анализ языка: Культурные концепты. – М., 1991; Зиновьева Е.И. Понятие "Концепт" в отечественном языкознании: основные подходы и направления исследования // Вестник СПбГУ. История, 2003. №2; Карасик, В.И. Языковые ключи / В.И. Карасик. – М.: Гнозис, 2009.

<sup>5</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019; Yusupov O'.Q. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim isloklar // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2011; Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012; Xudoyberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol.fan.d-ri... diss. –Toshkent, 2015.

Zamonaviy tilshunoslikda “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlari ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda. Jumladan, X.T.Xakimovning<sup>6</sup> dissertatsiyasida “aql” va “ahmoqlik” konseptual maydonlari tahlil qilinib, rus va ingliz madaniyatida ushbu leksik dubletning o‘xshash va farqli jihatlari bayon etilgan. O.G.Dubrovskaya<sup>7</sup> tomonidan ingliz va rus tillarida mazkur konseptlar maqollarning keng qamrovli tasnifi asosida lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. A.A.Mishin<sup>8</sup> nemis va ingliz tillarida olamning lisoniy manzarasida *aql* va *ahmoqlik* tushunchalarining semantik tuzilmalarini, sintagmatik aloqalarini, tarjima ekvivalentlarini va etimologik ma’nolarini o‘rganishga konseptual jihatdan yondashgan. N.R.Gafiatullina<sup>9</sup> ham ingliz va tatar tillari materialida “*donolik*” va “*ahmoqlik*” konseptual binar oppozitsiyasini ko‘rib chiqadi, ularni diskursiv tahlil qilishda xalqlarning bir xil hodisalarga turlicha munosabati o‘rganilayotgan tushunchalarning kognitiv jihatdan nomuvofiqligini ko‘rsatib bergan.

Bizning tadqiqotimizni yuqorida sanab o‘tilgan ishlardan farqi shundaki, ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida ilk bor tadqiqot mavzusi sifatida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan ochib berilgan, ya’ni mazkur konseptlarning tilda voqelanishida har ikki xalq etnik xususiyatiga xos antroponimlar, somatizmlar, zoonimlar, fitonimlar, diniy antroponimlar, predmetlar va ijtimoiy mavzuga oid madaniy kodlarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarining konseptual izomorfik va allamorfik jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, har ikki tilda “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarini ifodalovchi maqollar semantik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinib, muqobil variantlari keltirilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Til tadqiqiga zamonaviy-ilmii paradigmalari asosida yondashuv” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqot maqsadi** ingliz va o‘zbek tillaridagi “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarini voqelantiruvchi til vositalarining milliy-madaniy xususiyatlariga xos mushtarak va farqli jihatlarni ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish;

ingliz tilidagi *wisdom* va *foolishness* hamda o‘zbek tilidagi *donolik* va *nodonlik* leksemalarining ma’noviy mohiyati va konseptual asoslarini solishtirish;

“*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarini voqelantiruvchi lisoniy birliklarning til sathlari bo‘yicha struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash va tasniflash;

ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatshunosligida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining markaziy va chegaraviy birliklarini aniqlash;

---

<sup>6</sup> Хакимов Х.Т. Концептуальные поля «ум» и «глупость» в русской и английской лингвокультурах: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2022.

<sup>7</sup> Дубровская О.Г. Лингвокультурологический аспект сопоставительного исследования русских и английских пословиц об уме и глупости: Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Екатеринбург, 2000.

<sup>8</sup> Мишин А.А. Концепты ум и глупость в немецкой и английской языковых картинах мира: Дис. ... канд. филол. наук. – Владимир, 2007.

<sup>9</sup> Гафиатуллина Н.Р. Вербализация бинарных концептов Мудрость / Акыл и Глупость / Юлэрлык в английском и татарском языках: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Казань, 2012.

ingliz va o‘zbek madaniy olamiga xos umumiy hamda farqli jihatlarni “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining “lingvomadaniy kod” tushunchasi nuqtayi nazaridan asoslash;

chog‘ishtirilayotgan tillarda “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining semantikasini leksik, frazeologik hamda paremiologik birliklar tahlili asosida tavsiflash va qiyoslash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining leksik, frazeologik, paremiologik va boshqa birliklar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** ingliz va o‘zbek tillarida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptual tuzilmalarini ifodalovchi leksik va frazeologik birliklar, maqollar semantikasi hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-chog‘ishtirma, funksional-semantik, assotsiativ, konseptual va defenitsion tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

genetik va tipologik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari bilan bog‘liq muammo jahon tilshunosligi yutuqlari doirasida nazariy jihatdan asoslangan;

“*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarini verballashtiruvchi til birliklarining konseptual-semantik maydon tuzilmalari – verbal (morfemalar, leksemalar, frazemalar, sintaksemalar, tekstemalar, paremiologik birliklar) va noverbal vositalar tavsiflangan; maydon yadrosidagi asosiy leksemalar sifatida ingliz tilidagi *wisdom* va o‘zbek tilidagi *donolik*ning 6 ta leksik ma’nosida bir-biriga mos kelishi, *foolishness* va *nodonlik* leksemalarida to‘liq tasodifiy moslikning 3 ta holati aniqlangan;

“*wisdom / donolik*” va “*foolishness / nodonlik*” konseptlarining verballashuvi antropomorfik (diniy, mifologik), somatik, biomorfik, predmetli, gastronomik, kiyim-kechak, temporal (vaqtga doir) kodlar orqali asoslangan, lisoniy birliklarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq izomorfik (umumiy) va allamorfik (farqli) jihatlari dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillarida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlari lingvomadaniy semantikasining milliy mentalitetga bog‘liqligi paremiologik birliklar tahlili asosida isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilar bilan belgilanadi:

ingliz va o‘zbek tillari qiyosidagi “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlari til sathlarida verbal birliklar va noverbal vositalar orqali voqelantirilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillarda “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlariga doir leksik birliklar, madaniy kodlar va maqollar statistikasi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi “*donolik*” hamda “*nodonlik*” konseptlarining konseptual tahlil qilish tizimi ishlab chiqilgan;

leksik, frazeologik birliklar va maqollar orqali “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarining verballashuvi bilan bog‘liq lingvomadaniy xususiyatlar ingliz va o‘zbek tillari asosida qiyoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mazkur tadqiqotda tilshunoslik sohasida qo‘llanilayotgan zamonaviy lingvistik yondashuvlarga mos keluvchi va metodologik jihatdan puxta ishlab chiqilgan uslublardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy asosga ega bo‘lgan nazariy mulohazalar shakllantirildi. Shu bilan birga, dissertatsiya nazariy tamoyillari bilan tadqiqot natijalari o‘rtasidagi uyg‘unlik aniqlanib, amaliyotga

joriy qilingan xulosa va tavsiyalar tegishli tashkilotlarning tasdig'i orqali qo'llab-quvvatlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur ish nazariy lingvistikaning rivojiga muhim hissa qo'shib, konsept va unga aloqador tushunchalarni aniqlash hamda samarali tarjima usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq dolzarb muammolarga yangi yechimlar taklif etadi. Tadqiqot tilshunoslik sohasidagi mavjud paradigmalarni rivojlantirish va til universiyalarini o'rganish uchun yangi modellarni ishlab chiqishga imkon beruvchi qimmatli ma'lumotlar majmui bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'quv materiallarini yaratishda, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda yangi yo'nalishlar va mavzularni ishlab chiqishda muvafaqqiyatli qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot yuqori amaliy salohiyatga ega bo'lib, o'quv dasturlari, darsliklarni takomillashtirish, tillarni solishtirish va yangi kurslarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chog'ishtirilayotgan tillarda "*donolik*" va "*nodonlik*" konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan mazkur tadqiqot ishidan olingan ilmiy natijalar quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

"*donolik*" va "*nodonlik*" konseptlarini verballashtiruvchi til birliklarining konseptual-semantik maydon tuzilmalari – verbal (morfemalar, leksemalar, frazemalar, sintaksemalar, tekstemalar, paremiologik birliklar) va noverbal vositalar tavsifi; maydon yadrosidagi asosiy leksemalar sifatida ingliz tilidagi *wisdom* va o'zbek tilidagi *donolik*ning 6 ta leksik ma'nosida bir-biriga mos kelishi, *foolishness* va *nodonlik* leksemalarida to'liq tasodifiy moslikning 3 ta holati aniqlanganligi haqidagi xulosalardan 2024-yilning aprel va may oylarida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon" nomli eshittirishlar ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 24-iyundagi 04-36-779-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirish, ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

"*wisdom / donolik*" va "*foolishness / nodonlik*" konseptlarining verballashuvi antropomorfik (diniy, mifologik), somatik, biomorfik, predmetli, gastronomik, kiyim-kechak, temporal (vaqtga doir) kodlar orqali asoslangan, lisoniy birliklarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlar bilan bog'liq izomorfik (umumiy) va allamorfik (farqli) jihatlari tahlil qilinib, o'xshash va farqli xususiyatlari aniqlangan. Ushbu natijalar Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekistondagi elchixonasining 2021-2023 yillarda faoliyat olib borgan "Mindonobod Satellite Access Microscholarship Program" S-UZ800-21-GR-3126 xalqaro amaliy loyihasida qo'llanilgan (Farg'ona tumani 62-o'rta ta'lim maktabining 2024-yil 27-dekabrda 149-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy loyiha *donolik* va *nodonlik* haqidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi konseptual bilimlar bilan boyitilgan;

ingliz va o'zbek tillarida "*donolik*" va "*nodonlik*" konseptlari lingvomadaniy semantikasining milliy mentalitetga bog'liqligi paremiologik birliklar tahlili asosidagi xulosalardan 2017-2020-yillarga mo'ljallangan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar imiy-

tadqiqot institutining 2024-yil 25-iyundagi 249/1-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar va monografiyalarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tqazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop ettirilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 159 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Konseptning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi uch faslni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli "*Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning tarkibiy qismi sifatida*" deb nomlanadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning paydo bo'lishiga hozirgi kunda antropotsentrik paradigma asosidagi lingvistik tadqiqotlarning til va madaniyat o'rtasidagi munosabat masalalarini o'rganishga qaratilganligi sabab bo'lgan. Mazkur antropotsentrik paradigma V.fon Gumboldt tomonidan XIX asrda tadqiq etilgan bo'lib, unda dunyo tillari tuzilishidagi o'xshashlik va farqlar, ularning insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri to'g'risida fikrlar ilgari surilgan. Olim tomonidan tilning o'ziga xosligi va milliy xarakterning o'zaro bog'liqligi haqida tezislar ishlab chiqilgan<sup>10</sup>.

V.N.Teliyaning so'zlariga ko'ra, "lingvomadaniyatshunoslik inson haqidagi fanning antropotsentrik paradigmasiga taalluqli bo'lib, uning markazida madaniyat fenomeni (hodisasi) turadi"<sup>11</sup>. V.N.Teliya lingvomadaniyatshunoslikni ilmiy paradigmadagi maqomiga ko'ra belgilaydi. Mazkur fanni V.A.Maslova ham xuddi shu aspektda izohlaydi: "lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigmaning mahsulidir"<sup>12</sup>. V.N.Teliya va V.A.Maslova o'z asarlarida lingvomadaniyatshunoslikning "til – madaniyat – inson" uchligi asosida vujudga kelganligini qayta-qayta ta'kidlab o'tishgan. G.G.Slishkinning fikriga ko'ra<sup>13</sup>, lingvomadaniyatshunoslik inson omiliga, aniqrog'i, inson bilan bog'liq madaniyat

<sup>10</sup> Гумбольдт В. фон. Характер языка и характер народа // Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С. 370-381

<sup>11</sup> Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С.122.

<sup>12</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений – М.: Академия, 2001. – С.8.

<sup>13</sup> Сlishкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С.32.

omiliga yo‘naltirilgan. Bunda insoniyat haqidagi fanning antropotsentrik paradigmaga tegishli hodisa ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Til va madaniyat uzviyligi haqida olimlarimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlar o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy qarashlarning nazariy jihatdan shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” nomli maqolasida lingvomadaniyatshunoslik sohasining mohiyati hamda bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. E.Begamatov “Antroponimlar – antropotsentrik tadqiq obyekti” nomli maqolasida esa antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog‘liq ekanligi, ularda shaxsiy ehtiyoj va ijodkorlikning namoyon bo‘lishi, umuman, ismlar xalqning madaniy-maishiy turmushi bilan bog‘liq ekanligi ularni antropotsentrik paradigma sifatida o‘rganish uchun asos bo‘lishini ta‘kidlab o‘tadi. Shuningdek, D.Xudoyberganovanning “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida antropotsentrik paradigmanning nazariy asoslariga doir fikrlar ilgari surilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot ishi o‘zbek tilidagi matnlarni lingvomadaniy aspektda tahlil qilishi bilan soha rivojida muhim ahamiyatga ega.

Bobning ikkinchi fasli “*Konsept lingvomadaniyatshunoslikning asosiy kategoriyasi sifatida*” deb nomlanadi.

Konseptning lingvomadaniyat doirasida qo‘llanilishiga oid tadqiqotlar Y.S.Stepanov, N.D.Arutyunova, V.I.Karasik, R.M.Frumkina, V.A.Maslova, G.G.Slishkin, G.Vorkachev, Z.X.Bijeva, A.Vejbitskaya G.V.Tokareva, V.N.Teliya va boshqalar asarlarida o‘z aksini topgan. Ushbu olimlar konseptni inson ongida shakllanishiga ko‘plab omillar ta‘sir qiladigan madaniy birlik sifatida ta‘riflaydilar.

N.D.Arutyunova bu tushunchani odatiy falsafaga kiritib, uni din, milliy qadriyatlar, an‘analari va folklarning o‘zaro ta‘siridagi o‘ziga xos natijasi deb qaraydi<sup>14</sup>. Tadqiqotchi konseptni xalqning ma‘naviy madaniyatini targ‘ib qiluvchi, tilda mustahkamlangan lingvistik dunyoqarash, mentalitetning analogi (o‘xshashi) sifatida izohlaydi. Mazkur talqinlar asosida konseptlar maishiy ongning madaniy ahamiyatga ega, o‘ziga xos qadriyatli tushunchalari sifatida ta‘riflanadi.

Z.X.Bijevaning fikriga ko‘ra<sup>15</sup>, konsept ma‘lum bir madaniyat an‘analari bilan belgilanadi, chunki u til sohibining olamni va atrofdagi voqelikni qanday idrok etishini aks ettiruvchi ideal tushunchaning shakllangan ifodasidir. Tilshunosning ta‘kidlashicha, borliqning moddiyligi, ma‘lum bir madaniy tuzilmalarda qat‘iylashganligi, u o‘zida milliy va poetik mazmun sinkretizmini saqlashi bilan bog‘liq madaniy xususiyatlar konseptning asosiy belgilaridan sanaladi.

V.A.Maslova konsept deganda olam tasvirining asosiy elementlarini nazarda tutadi<sup>16</sup> va ularni yaratishda lingvomadaniy hamjamiyat uchun ham, til sohibi uchun ham muhim bo‘lgan madaniy xususiyatlar asosiy rol o‘ynaydi, deya ta‘kidlaydi. Milliy lisoniy ongda tayanch madaniy konseptlar muhim o‘rin tutadi, bu esa ushbu tushunchalarni o‘rganishning dolzarbligini anglatadi.

Konsept madaniy-semiotik yondashuv doirasida tavsiflanar ekan, bunda konseptga muayyan til konseptosferasining uzluksiz rivojlanishdagi elementi sifatida

<sup>14</sup> Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия: сб. статей. / Под ред. Н.К.Рябцевой. – М.: Наука, 1993. – С. 3-6.

<sup>15</sup> Бижева З.Х. Антропоцентризм культуры – антропоцентризм языка / Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы. – Казань, 2004. – С. 14.

<sup>16</sup> Маслова С.И. Философские концепты как регулятивы гибкой рациональности: трансформация от античности до нового времени / С.И.Масалова; отв. ред. Е.Е.Несмеянов. – Ростов н/Д: РГПУ, 2006. – С.51.

yuzaga chiqadi hamda bir qator xarakterli xususiyatlar – ichki tuzilmalarning (strukturaning) mavjudligi; madaniy-tarixiy hodisalarning shartliligi; kognitiv-semantik qamrovi; etimologik jihatdan ibtidoiy ma’nolarga egaligi; ma’no va mazmunning beqarorligi; ifodalovchilarning xilma-xilligi kabi xususiyatlarni namoyon etuvchi global, mental, ko‘p qirrali birlik sifatida qaraladi<sup>17</sup>.

O‘zbek tilshunos olimlaridan Sh.Safarov konseptni shunday izohlaydi<sup>18</sup>: konsept asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi, konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi hamda ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

A.Mamatov konseptni “ma’lum sotsiumning ma’naviy yoki moddiy madaniyatini til belgilari bilan bog‘lovchi hodisa haqidagi bilim” sifatida ta’riflab<sup>19</sup>, uning etnomadaniy xarakteri orqali mental, falsafiy va psixologik sohadan qadriyatli-madaniy sohaga o‘tishini ta’kidlaydi.

Y.S.Stepanovning konsept va uning tuzilishi haqidagi mulohazalari ham e’tiborga loyiq. Uning fikricha, konsept tuzilishi uni madaniy voqelikka (faktga) aylantiruvchi unsurlardan iborat, ya’ni semantik strukturaning uzluksiz taraqqiyoti, etimologik ma’nosi, tasavvurlar, baholar va boshqalar<sup>20</sup>. Shu o‘rinda olim konseptning ko‘p “qatlamli” tuzilishini ta’kidlaydi, binobarin, har bir “qatlam” ma’lum bir etnik guruhning turli davrlarga oid madaniy hayotini qayta gavdalandira oladi. Ya’ni konseptning tuzilishi tarixiy jihatdan turli qatlamlar (tarkibiy, etimologik va semantik jihati) hamda uchta o‘ziga xos xususiyati bilan ifodalanadi<sup>21</sup>:

a) dolzarb (aktual) belgi – barcha til va madaniyat sohiblari uchun ahamiyatli bo‘lib, og‘zaki ifodalanadi hamda ma’lum bir xalq vakillari uchun aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

b) qo‘shimcha, passiv belgi – ma’lum bir ijtimoiy guruhga taalluqli bo‘lishi mumkin;

v) etimologik belgi yoki ichki shakl – madaniyat egalari uchun eng kam ahamiyatga ega bo‘lib, so‘zning kelib chiqishi tashqi shaklda anglanmaydi va olim ta’kidlaganidek, ushbu xususiyat asosida boshqa ma’nolar paydo bo‘ladi.

P.V.Tokarev talqiniga ko‘ra<sup>22</sup>, konseptning strukturaviy modeli ikkita asosiy mazmun turlariga bo‘linadi: birinchi turga umuminsoniyat uchun qadriyatli bilim elementlari kiradi. Olim konseptning bu turini universal deb ataydi. Ikkinchi turni umumiy tili, tarixi va madaniyati asosida birlashgan ma’lum milliy (etnik) guruhga xos bilimlardan tashkil topgan kognitiv-semantik qatlam, ya’ni madaniy konsept tashkil etadi.

Ayrim tilshunoslar konseptlarni pragmatik nuqtayi nazardan ham tasniflaydilar<sup>23</sup>, ya’ni lingvomadaniy jihatdan ijtimoiy (madaniy – erk, adolat, mehnat, mulk, boylik, huquq) va umuminsoniy (harakat, sabab, zamon, o‘zgarish, makon) konseptlarni;

---

<sup>17</sup> Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: изд-во ТГПУ им. Л.Н.Толстого, 2009. – С.15.

<sup>18</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B.17.

<sup>19</sup> Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – B.102.

<sup>20</sup> Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Академический проект, 2001. – С.41.

<sup>21</sup> Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Академический проект, 2001. – С.44-45.

<sup>22</sup> Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: изд-во ТГПУ им. Л.Н.Толстого, 2009. – С.16.

<sup>23</sup> Гуревич А.Я. Человек и культура. Индивидуальность в истории культуры. – М., 1990. – С.89.

diskursiv tasnif mualliflari esa olamni idrok etishning asosiy tamoyillariga ko'ra maishiy, ilmiy va badiiy konseptlarga ajratadilar<sup>24</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda konseptlarning eng keng tarqalgan tasniflaridan biri milliy va umuminsoniy (universal) turlarga bo'linishidir. Universal konseptlar – madaniy jihatdan barcha xalqlar mentaliteti uchun umumiy bilimlarni o'z ichiga oladi (quvonch va qayg'u; yaxshilik va yomonlik; sevgi va nafrat). Ikkinchi tur ma'lum bir etnosga oid konseptlardan tashkil topadi. Jumladan, o'zbek madaniyatida “mehmondo'stlik” va “ustoz-shogird” an'analari, ingliz madaniyatida esa “individualism” (shaxsiy mustaqillik va erkinlikka intilish) hamda “gentleman” (nazokat, odob va hurmat bilan bog'liq ijtimoiy ideal) tushunchalari milliy konseptlar sirasiga kiradi.

Garchi konseptni ta'riflash va o'rganishga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ilmiy qarashlarning xilma-xilligi konseptning sof lingvomadaniy tushuncha sifatida aniq va yagona talqinga ega emasligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning “konsept” tushunchasiga oid mulohazalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, lingvomadaniy yondashuv doirasida konsept ko'p qirrali mental tuzilma bo'lib, milliy, madaniy, qadriyatli va tasvirli elementlarni o'z ichiga oladi. Etnik guruhning olamni idrok etish tajribalari asosida konseptni turli paradigmalar asosida umumlashtirish, ya'ni mafkura, san'at, din va shu kabi oldin o'zlashtirilgan yetakchi qadriyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyatga ega.

Bobning uchinchi fasli “*Konseptual tahlil tizimi va uning metodologik asoslari*” deb nomlanib, unda konseptlarni tahlil qilish orqali ularning semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan usullar haqida fikr yuritiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida jadal shakllanishi va rivojlanishi ma'lum darajada “lingvomadaniy tahlil” atamasining umumlashtirilgan ta'rifi yo'qligiga sabab bo'ldi. E.I.Zinovyeva va E.E.Yurkov bu atamani turli metodlarni ifodalash maqsadida qo'llaydilar<sup>25</sup>: lug'at maqolalari applikatsiyasi, diskurs, konseptual tahlil va boshqalar.

“Konseptual tahlil” tushunchasi tilshunoslikda noaniq talqinga ega bo'lib, bu xususda S.E.Nikitina ta'kidlaganidek, konseptlar tahlili muayyan turdagi tadqiqot obyektini konseptlar yordamida tahlil qilishni hamda cheklovchi birlikni tashkil etuvchi tahlilni ham nazarda tutishi mumkin<sup>26</sup>. E.E.Yurkov va E.I.Zinovyeva konseptual tahlilni konseptlarni tahlil qilish deb tushunsalar-da, uning doirasida mavhum nomlar va tasavvurlar (V.A.Dolinskiy, L.O.Cherneyko) mosligini o'rganish hamda bir xil madaniyatga mansub sintagmatik va paradigmatic darajadagi konseptlar bilan aloqasini aniqlashga qaratilgan metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar.

Konseptlarni o'rganishda ularning mazmuni va tuzilishini, madaniy-semantik imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan tahlil usullari qo'llaniladi. V.N.Teliya aytganidek, konseptual tahlil mohiyatan konsept ma'nosini anglash va olingan natijani

---

<sup>24</sup> Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия: сб. статей / Под ред. Н.К.Рябцевой. – М.: Наука, 1993. – С.176; Карасик В.И. Определение и типология концептов / В.И.Карасик // Этнокультурная концептология: сб. науч. тр. / Калм. гос. ун-т. – Вып. 1. – Элиста: Изд-во Калм. ун-та, 2006. – С.156-158.

<sup>25</sup> Зиновьева Е.И., Юрков Е.Е. Лингвокультурология: теория и практика. – СПб.: МИРС, 2009. – С.101.

<sup>26</sup> Никитина С.Е. Концептуальный анализ в народной культуре // Логический анализ языка: Культурные концепты. – М., 1991. – С. 101.

qayd etish demak<sup>27</sup>. Konseptual tahlil konseptlarni tavsiflashning yagona usuli emas, balki turlicha tadqiqot usullarining majmui hisoblanadi.

Konseptlarni lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, konseptning turini, uning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash uchun tayanch birlik etimologiyasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, konseptual-semantik maydonning yadro va periferik birliklarini ajratib olish zarur. Uchinchi bosqichda mazkur birliklar (ifodalovchilar)ning semantik va komponent tahlili o'tkaziladi. Konsept verbalizatorlarini leksik jihatdan tahlil qilish, olamning lisoniy manzarasida tavsiflash usullaridan foydalanish keyingi bosqichda amalga oshiriladi. Shuningdek, nominativlarni turli darajalarda – leksema, frazeologik birlik, derivativlardan tortib paremiologik birliklarga o'rganib chiqish ma'lum bir etnosning madaniy xususiyatlarini aniqlashga yaqindan yordam beradi. Bu, o'z navbatida, olamni konseptuallashtirishning barcha usullaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tillarida “donolik” konseptining verballashuvi”** deb nomlanadi. Birinchi faslda *“Ingliz va o'zbek tillarida “donolik” konseptini ifodalovchi leksik vositalar”*ga e'tibor qaratiladi. Ushbu faslda ingliz va o'zbek tillarida *“donolik”* konseptini ifodalovchi leksik vositalar, ya'ni konseptni ifodalovchi tayanch birlik – *donolik* leksemasi va boshqa verbalizatorlar konseptual, etimologik, kontekstual hamda qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ingliz tilining izohli lug'atlarida berilgan tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, ingliz tilida *“wisdom”* konsepti etimologik tahlilda ta'kidlangan *“bilim”*, *“o'rganish”*, *“tajriba”*<sup>28</sup> semalarini hozirgi kunda ham saqlab kelmoqda va o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Lug'at ma'lumotlariga tayangan holda, *wisdom* leksemasining quyidagi 8 ta konseptual belgilarini aniqladik: 1) mulohazali va oqilona fikr; 2) ma'lum bir davrda to'plangan bilim va tajriba; 3) bilim va tajribadan foydalanish; 4) maslahat yoki ma'lumot; 5) falsafiy yoki ilmiy bilim; 6) qadimgi donishmandlar ta'limoti; 7) axloqiy tamoyillarga mos xatti-harakatlar; 8) didaktik kitob.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da<sup>29</sup> *donolik* leksemasining izohi to'liq va izchil berilgan, deb ayta olmaymiz. Ingliz tili izohli lug'atlarida *wisdom* lug'aviy birligi aniqroq va to'liqroq talqin qilingan. Shu sababli biz *“donolik”* konseptining badiiy va publitsistik matnlardagi qo'shimcha ma'nolari asosida umumiy 4 ta: **1) donolarga xos xatti-harakat; 2) bilimdonlik, donishmandlik; 3) o'qib-o'rganish va shaxsiy tajribalar asosida yuzaga keladigan bilimlar** (*Donolik hamma narsaning ibtidosi va buyuk ezgulikdir. Shu bois u hatto falsafadan ham qimmatliroq* (S.Jo'rayeva, “Haqiqat manzaralari”)); **4) maslahat; hikmat** (*Bu olamning jamiki donoliklari va fikr-mulohazalari odamlarni o'limdan qo'rqmaslikka o'rgatishga borib taqaladi* (S.Jo'raeva, “Haqiqat manzaralari”)) kabi konseptual belgilari aniqlandi. Bunda 1- va 2- ma'nolar izohli lug'atda keltirilgan bo'lsa, 3- va 4- ma'nolarini yangi ma'nolari sifatida qarash mumkin.

<sup>27</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С.97.

<sup>28</sup> [www.etymonline.com](http://www.etymonline.com) [M.S. 15.09.2024]

<sup>29</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev, E.Begmatov tahriri ostida. Toshkent, 2020 y. I jild. –B.675.

“Donolik” konsepti barcha til jamoalari konseptosferasiga oid mental birlik sifatida universal sanaladi hamda kommunikativ muloqot ehtiyoji nuqtayi nazaridan, o‘ziga xos freymli konseptual tuzilma bo‘lib, u ingliz va o‘zbek tillarida quyidagi verbal va noverbal (paralingvistik) vositalar orqali til sathlarida verballashadi:

**I. Morfologik vositalar** (morfemalar): **ing.** *wise – wis+ing, wis+ed, wis+er, wis+est, wise-ly, un-wise, un-wisely, wis+dom*; **o‘z.** *dono – dono+roq, dono+lik, dono+larcha, don+ishmand, donishmand+lik, donishmand+larcha, donishmand+ona.*

**II. Leksik vositalar** (leksemalar): 1) ot bilan: **ing.** *knowledge, comprehension, intelligence, judgement, penetration, sagacity*; **o‘z.** *aql, bilim, es, tajriba, oqillik, zakovat, zehn*; 2) sifat bilan: **ing.** *brilliant, clever, insightful, astute, literate, smart, sharp, shrewd*; **o‘z.** *dono, zukko, oqil, didli, bilag‘on, fahmli, idrokli, savodli, uquvli, ziyrak, xiradmand*; 3) fe‘l bilan: **ing.** *understand, advise, guide, judge, enlighten, perceive, learn, ponder*; **o‘z.** *anglamoq, fahmlamoq, pishmoq, sergaklanmoq, o‘qimoq, o‘rganmoq, kengashmoq*; 4) ravish bilan: **ing.** *wisely, insightfully, thoughtfully, sagely, prudently, reflectively, rationally*; **o‘z.** *donolarcha, donishmandona, oqilona, ayyorona, bilag‘onlarcha.*

**III. Sintaktik vositalar** (sintaksemalar): 1) so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z bilan: **ing.** *accumulated wisdom, ancient wisdom, wise decision, sound advice, rational thinking, acquire wisdom, seek wisdom, profound understanding*; **o‘z.** *biyron gapirmoq, gapga chechan, bama‘ni javob, oqilona qaror, savodxon odam, donolik qilmoq, hushyor tortmoq, sergak bo‘lmoq*; 2) sentensemalar (sodda va qo‘shma gaplar) bilan: **ing.** *Under a ragged coat lies wisdom* (proverb); *It is the riches of mind only that make a man rich and happy* (proverb); *Wisdom in the mind is better than money in the hand* (proverb); **o‘z.** *Dono qarisa ham, donoligi qarimas* (Maqol); *Dono aytsa, el aytgani, Elning g‘amin yeb aytgani* (Maqol); *O‘n qatim o‘yla, bir qatim so‘yla* (Maqol).

**IV. Frazologik vositalar** (frazemalar): **ing.** *a wise old owl, have the wisdom of Solomon, words of wisdom, the pursuit of wisdom, pearls of wisdom*; **o‘z.** *zuvalasi ortiq, ko‘zi pishgan, aqli o‘tkir, aqli yugurik, kallasi ishlaydigan, aqli yetmoq.*

**V. Tekstologik vositalar** (tekstemalar). **ing.** *By three methods we may learn wisdom: first by reflection, which is noblest; second, by imitation, which is easiest; and third by experience, which is the the bitterest;*<sup>30</sup> *His words are wisdom to those legislators who contemplate no essential reform in the existing government; but for thinkers, and those who legislate for all time, he never once glances at the subject*<sup>31</sup> **o‘z.** *O‘z darajasiga yetolmaslik – johillikdan o‘zga narsa emas. O‘z darajasidan oshmoqlik esa donolikning o‘zginasidir* (Saida Jo‘rayeva, “Haqiqat manzaralari”); *Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko‘p da‘vo qilsa, shuncha nodon bo‘ladi* (O‘.Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”).

**VI. Paralingvistik vositalar.** *Donolikni* ifodalovchi paralingvistik vositalar ba‘zan lingvistik vositalardan ham ta‘sirchan bo‘lishi mumkin. Jumladan, mulohazakorlik va o‘ychanlikni ifoda qiluvchi sokin yuz ifodasi (bir soniya chuqur tin olish, o‘yga botish, mulohaza qilish), ko‘z orqali muloqot qilish (imo qilish: aqli baloga yetadi deb, im qoqish) yoki olisga qarash (o‘ylanib qolishlik), qo‘lni yon

<sup>30</sup> <https://www.brainyquote.com/topics/wisdom-quotes> [M.S. 12.11.2024]

<sup>31</sup> <https://sentence.yourdictionary.com/wisdom> [M.S. 12.11.2024]

tomonga ochish (boshqaning mulohazasini tan olish alomati), ko'rsatkich barmoq bilan ta'kidlash (uqtirish), qo'lni iyakka yoki boshga tegizish (o'ychanlik alomati).

Shuningdek, "wisdom" va "donolik" konseptlarining nutqda faol qo'llaniluvchi lug'aviy birliklarni quyidagicha guruhlashtirishga muvaffaq bo'ldik.

#### **Wisdom:**

**knowledge** – *learning, erudition, scholarship, lore;*

**prudence** – *discernment, judgement, common sense, long-headedness, judiciousness, shrewdness, acumen;*

**understanding** – *penetration, percipience, sagacity, perceptiveness, cleverness, insight, clear-sightedness, astuteness;*

**intelligence** – *smartness, brilliance, brightness, sharpness, wit.*

#### **Donolik:**

**aql-idrok** – *zako, xirad, zehn, zakiylik, o'tkirlik, bama'nilik, oqillik, zakovat, idrok, kalla, es, bosh, miya, zukkolik;*

**fahm-farosat** – *uquv, tamiz, did;*

**bilim** – *donishmandlik, bilimdonlik, ziyraklik;*

**topqirlik** – *basirat, sergaklik, sezgirlik, bilag'onlik.*

Shuningdek, mazkur faslda konseptni semantik maydon asosida tahlil qilish davomida uning yadro va periferik birliklarini ham izohlab o'tdik. Dastlab ingliz tilidagi "wisdom" konseptini yadroviy va periferik qatlamlarga ajratdik. Konsept yadrosi verbalizatorlari: *cleverness, intelligence, insight, learning, perceptiveness, wit;* yaqin chegarada: *astuteness, brightness, brilliance, clear-sightedness, common sense, judgement, lore, sharpness, scholarship, shrewdness;* uzoq chegarada: *acumen, discernment, erudition, long-headedness, penetration, percipience, sagacity.*

O'zbek tilida "donolik" konseptining yadrosidan *donishmandlik, oqillik, zukkolik;* yadroning yaqin chegarasidan *bama'nilik, bilimdonlik, bilag'onlik, idrok, sezgirlik, sergaklik, zakiylik, zehn, ziyraklik;* uzoq chegarasidan *basirat, bosh, did, es, kalla, miya, zako, tamiz, xirad, o'tkirlik* leksemalari o'rin oladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "Donolik" konseptining lingvomadaniy kodlar asosidagi tavsifi" deb nomlangan.

Madaniy kodlar tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqish kabi lingvomadaniy birliklarda namoyon bo'ladi. Madaniy kodlarda insonlarning moddiy va ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkuri, aksiologik qarashlari yaqqol aks etadi.

Biz o'z tadqiqotimizda ingliz tilidagi "wisdom" va o'zbek tilidagi "donolik" konseptlari bilan bog'liq madaniy axborot tashuvchisi bo'lgan til birliklariga e'tibor qaratdik va har ikki tilda ham ushbu konsept bilan aloqador quyidagi madaniy kodlarga duch keldik:

**1. Diniy-mifologik kodlar.** Ingliz tilida "wisdom" konsepti bilan bog'liq diniy antroponimlar asosan *shoh Sulaymon (King Solomon)* obrazi bilan bog'liq holda talqin qilinadi va unga quyidagi iboralar misol bo'la oladi: *Solomon's choice, as wise as Solomon, have (take, require) the wisdom of Solomon.* Sulaymon Qur'onda ham zikr etilgan payg'ambarlardan biri bo'lib, o'zbek tilida mazkur shaxs bilan bog'liq "Sulaymon o'ldi – devlar qutuldi", "Sulaymon g'aznasi ham chidamaydi" iboralari mavjud. Har ikki tilda keltirilgan iboralar mazmunidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ingliz xalqi dunyoqarashida Sulaymon donolik timsoli hisoblanib, tarixiy shaxs sifatida gavdalanadi. O'zbek tilida esa Sulaymon bilan bog'liq frazeologik

birliklar ko‘proq *qattiqqo‘llik* va *boylilik* tushunchalari bilan bog‘lanadi hamda to‘qima obraz sifatida tasavvur qilinadi.

**2. Antropomorfik kodlar.** Ingliz tilidagi “*wisdom*” va o‘zbek tilidagi “*donolik*” konseptlarini ifodalovchi metafora va iboralarni shartli ravishda uch guruhga ajratdik: 1) shaxs nomlari bilan bog‘liq tasvirlar (yoki presedent nomlar). Ingliz tilida *Albert Eynshteyn*, *Cherchill* obrazlari. O‘zbek tilida *To‘maris*, *Navoiy*, *Luqmoni Hakim* timsollari;

2) kasbiy faoliyat bilan bog‘liq tasvirlar. Ingliz tilida *ecological wisdom* (*iqtisodiy donolik*), *political wisdom* (*siyosiy donolik*), *wisdom of medicine* (*tibbiyot donologi*) kabi metaforalar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida kasb-hunarga oid *dehqonchilik tili* metaforasi keng tarqalgan bo‘lib, mazkur ish-faoliyatning sir-asrorlarini yaxshi tushunish, u haqda yetarlicha bilim va tajribaga ega bo‘lishlik nazarda tutiladi.

3) xarakter tasvirlari. Ingliz tilida “*wisdom*” konseptining verballashuvida insonlarga xos xarakter-xususiyatlar asosan metaforalar yordamida namoyon bo‘ladi. Jumladan, *creative wisdom* (*ijodkor donolik*), *benevolent wisdom* (*xayrixoh donolik*), *compassionate wisdom* (*rahmdil donolik*). O‘zbek tilida “*donolik*” konsepti bilan bog‘liq *porloq aql*, *sog‘lom aql*, *o‘tkir aql*, *aqli yugurik* singari metaforalar mavjud bo‘lib, ularda ruhiy jihatdan shikast yetmagan yoki imkoniyat darajasi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati nazarda tutiladi.

**3. Biomorfik kodlar.** Mavhum tushunchalarni an’anaviy tarzda o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari yordamida tasvirlash holatlarini badiiy adabiyotda ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ingliz tilida ham hayvonlar orasida *snake* va *owl* (*as wise as owl*); *roots of wisdom* (*donolik ildizi*), *fruit of wisdom* (*donolik mevasi*), *seeds of wisdom* (*donolik urug‘i*) kabi metaforalarda “*wisdom*” konseptining zoomorfik va vegetativ belgilari namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida “*donolik*” konseptini o‘simliklar dunyosi bilan bog‘laydigan *donolik urug‘i* metaforasi mavjud bo‘lib, mazkur metaforadan donolikni targ‘ib qilish yoki insonlar orasida ommalashishiga turtki bo‘ladigan vaziyatlarni tasvirlash uchun foydalaniladi: *Kimki donolik urug‘ini sochsa, ulug‘lik mevasini teradi.* (“Hikmatnoma”)

**4. Somatik kodlar.** Somatizmlar ham madaniy kod turlaridan biri bo‘lib, inson tana a’zolarining nomlarini o‘zida aks ettiruvchi leksik birliklardir. Ingliz va o‘zbek tillarida “*wisdom*” va “*donolik*” konseptlari bilan bog‘liq quyidagi somatik kodlar uchraydi:

1) bosh. Ingliz tilida: *clear head*, *egghead*, *hit the nail on the head*; o‘zbek tilida: *miyani ishlatmoq*, *bosh qotirmoq*;

2) qo‘l. Ingliz tilida *old hand* iborasi ma’lum bir sohada yoki faoliyatda juda tajribali va mahoratli bo‘lgan kishini anglatadi. O‘zbek tilida bu doirada qo‘l bilan bog‘liq ibora uchramasa-da, biroq mazkur iboraning ekvivalenti mavjud, faqat u ko‘z somatizmi yordamida ifodalanadi. O‘zbek tilida *ko‘zi pishgan* frazeologik birligi *old hand* iborasining muqobili hisoblanadi. Bu ibora “Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi”da quyidagicha izohlanadi: “Umri davomida biror ish bilan muttasil shug‘ullangan va katta tajriba, malaka, ko‘nikma hosil qilgan, bunday ishning bemalol uddasidan chiqa oladigan odamga nisbatan “bu ishda uning ko‘zi pishgan” iborasi ishlatiladi”<sup>32</sup>.

---

<sup>32</sup> Shomaqsudov Sh., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2020. – B.226.

**5. Predmetli kodlar.** Predmetli kod atrofdagi narsa-buyumlar bilan bog‘liq kodlar bo‘lib, ular birinchi navbatda, xalq turmushidan keng o‘rin olgan, maishiy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan predmetlar nomi bilan ifodalanadi<sup>33</sup>.

Dissertatsiyada “*wisdom/donolik*” konseptining predmet xususiyatlari quyidagi narsa-buyumlar bilan bog‘liqlikda tahlil qilindi. Ingliz tilida: *torch (beacon) of wisdom, the gift of wisdom, bright as a button, learn the ropes*; o‘zbek tilida: *igna bilan quduq qazimoq, bir kesak bilan ikki qarg‘ani urmoq, bir o‘q bilan ikki quyovni otmoq*.

**6. Gastronomik kodlar.** Gastronomik kodlar har bir millat madaniyatida mavjud bo‘lib, ular o‘sha xalqning turmush tarzi, milliy mentaliteti bilan bevosita bog‘lanadi. Biz tadqiqotimizning shu qismida ingliz va o‘zbek tillarida “*wisdom/donolik*” konseptini verballashtiruvchi iboralarni tahlilga tortdik. Ingliz tilida *smart cookie* – kimnidir aqlli deb aytishning so‘zlashuv usuli, *use your noodles* – kimnidir fikrlashga yoki aqliy qobiliyatidan foydalanishga undashning yengil va metaforik usuli, *know your onions, know which side one’s bread is buttered* – insonlarning zukkoligi, topqirligiga ishora qiluvchi, yangi bilimlar egallashga, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutishga da‘vat etuvchi frazeologik birliklar.

“O‘zbek xalq matal va iboralar ensiklopediyasi”<sup>34</sup>dan oziq-ovqat bilan bog‘liq “*donolik*” konseptini verballashtiruvchi 2 ta iborani uchratdik: 1) *zuvalasi ortiq* – ko‘chma ma‘noda ilmda hamda hunarda boshqalardan ortiqroq va peshqadam bo‘lgan insonga nisbatan; 2) *gapni ham zira-piyozlab, toza boplaydi* – ba‘zi odamlarning yozma va og‘zaki nutqi g‘oyat chiroyli qurilgan bo‘lib, ularning nutqi kishilarga tez ta‘sir etadi, shu bilan birga, ular o‘z nutqida ajoyib xalq maqollarini, iboralarini o‘rnida ishlata biladilar, natijada, suhbatdoshlari qalbiga tez yo‘l topadilar.

**7. Kiyim-kechak kodlari.** Ingliz tilida kiyim nomlari bilan bog‘liq 3 ta frazeologik birlik aniqlandi: 1) *clever clogs* 2) *smarty pants* 3) *put your thinking cap on*.

O‘zbek tilida kiyim-kechak nomlari bilan bog‘liq “*donolik*” konseptini voqelantiruvchi quyidagi iboralarga duch kelindi: 1) *bitta ko‘ylakni ortiq (yoki ko‘proq) yirtgan*; 2) *bosh yorilsa, do‘ppi ostida*; 3) *do‘ppisini olib (qo‘yib) o‘ylanmoq*.

**8. Vaqtga doir kodlar.** “*Wisdom*” konseptini nutqda verballashtiruvchi vaqtga doir bir necha iboralar mavjud: *wise beyond one’s years* – bu o‘z yoshiga nisbatan kutilganidan-da ko‘proq donolik yoki yetuklik ko‘rsatadigan odamni, odatda, yosh odamni tasvirlash uchun ishlatiladigan ibora; *not to be born yesterday* iborasi “kecha tug‘ilmagan” tarzida o‘zbek tiliga tarjima qilinadi, kimningdir osonlikcha aldanmasligini yoki ishontira olmaslikni bildirish uchun ishlatiladi.

Mazkur bobning uchinchi fasli “*Maqollarda “donolik” konseptining ifodalanishi va ularning lingvomadaniy tahlili*”ga bag‘ishlangan.

Ingliz va o‘zbek tilida donolik haqidagi maqollar salmoqli o‘rin tutadi. Har ikki xalq madaniyatida *donolik* ijobiy fazilat sifatida yuksak darajada baholangan va qadrlangan.

Ingliz tilida *wisdom* va o‘zbek tilida *donolik* bilan bog‘liq maqollarni mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) donolik – qiyinchilik va tajriba mevasi; 2) donolik har doim ham yosh bilan belgilanavermaydi; 3) qarilik –

<sup>33</sup> Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B.34.

<sup>34</sup> Shomaqsdov Sh., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2020. – B.102, 162.

donolikning belgisi; 4) donolik moddiy boylikdan ustun; 5) donolik – go‘zallik va tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq emas; 6) donolik – jahlni jilovlash; 7) tana sog‘lomligi – donolik garovi; 8) donolar so‘zi va suhbat foydali; 9) dono odamga birgina ishora kifoya; 10) donolik – o‘zgaruvchan fazilat.

Ingliz va o‘zbek tillarida “*wisdom*” va “*donolik*” konseptlari bilan bog‘liq maqollarni semantik jihatdan tahlil qilish asnosida ingliz tilida mavjud maqollarning mavzu va ekvivalentlari o‘zbek maqollarida ham uchrashi mumkin, degan xulosaga keldik. Natijada donolik bilan bog‘liq qaysi mavzu olinsa ham, deyarli ikki tilda o‘zining muqobil variantiga egaligi ma‘lum bo‘ldi. Jumladan, donolik har ikkala xalq mentalitetida boylikdan afzal ko‘riladi. Bu belgi ingliz va o‘zbek xalqlari o‘rtasida o‘xshash madaniy xususiyatlardan biri bo‘lib, maqollarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, “*Wisdom in a poor man is a diamond set in lead*”<sup>35</sup> maqoli “*Kambag‘alning donoligi qo‘rg‘oshindagi olmos*” mazmunini beradi. Shu nuqtayi nazardan, donolikning noyobligi va qadr-qimmatini olmos bilan taqqoslansa, “qo‘rg‘oshin” kambag‘al odamning oddiy va beqiyos tashqi ko‘rinishi hamda kamtarligini anglatadi. Bu qiyoslar shuni anglatadiki, ijtimoiy mavqeyi past insonlar moddiy boylikka ega bo‘lmasalar-da, donolik ularning bezagi hisoblanadi. Garchi ingliz tilidagi ushbu maqolning to‘liq mazmunini ifodalab bera olmasa-da, o‘zbek tilidagi “*Odam aqli – olmos, kesmagani qolmas*”<sup>36</sup> maqolini ekvivalent qilib tanlash mumkin.

Chuqur mazmuni bilan ajralib turuvchi maqollardan yana biri “*Have more brains in one’s little finger than one has in his whole body*”<sup>37</sup> maqolidir. Uning o‘zbekcha tarjimasini “*Kichkina barmog‘ida butun vujudiga qaraganda ko‘proq aql bor*” ko‘rinishida beriladi. Bu jumladan qandaydir ibratli fikrni darhol anglab olish biroz murakkabroq. Sababi insonning kichik barmog‘i butun tanasidan ko‘ra ko‘proq aqlga ega bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun bu maqol so‘zma-so‘z qabul qilish uchun mo‘ljallanmagan. Bu shuni anglatadiki, kimningdir oz bo‘lsa-da mavjud aqliy mahorati boshqalarning “ulkan” hisoblangan aqlidan ustunroqdir. Mazkur maqolning o‘zbekcha varianti “*Tuyaday bo‘y berguncha, ninaday aql bersin*” ko‘rinishida bo‘lib, ingliz tilidagi ekvivalentidan farqli o‘laroq, o‘sha mazmun “nina” va “tuya” kabi vositalar orqali ifodalanadi.

Ammo ayrim mavzudagi maqollarning bir tilda ikkinchisiga qaraganda ko‘proq uchrashiga sabab, bunday mavzudagi maqollar xalq hayotining asosiy bo‘g‘inini tashkil qiladi va o‘sha xalqning mentaliteti, milliy xarakter tasvirida yetakchilik qiladi. Ingliz maqollarida donolikka qiyinchilik bilan erishilishi, hatto donolar ba‘zan “ahmoq rolini ham o‘ynashi” mumkinligi yaqqol ko‘zga tashlansa, donolikning yoshga bog‘liq emasligi va aql bilan jahlni jilovlashga qaratilganligi o‘zbek xalq maqollari semantikasida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida “*nodonlik*” konseptining verballashuvi**” deb nomlanib, unda mazkur konsept mazmunini nutqda voqelantiruvchi leksik birliklar, ularni madaniy kodlar orqali tasniflash hamda maqollarning qiyosiy va lingvomadaniy tahlili haqida fikr yuritiladi.

<sup>35</sup> Rayner J.L. Proverbs and Maxims. Lnd., 1933. 25 lp. SEL IND-EUR. A Dictionary of Selected Synonyms in the principal Indo- European Languages (A contribution to the History of Ideas) / by C.D. Buck. – Chicago, 1949. – P.238.

<sup>36</sup> Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. –Toshkent, 1990. – B.26.

<sup>37</sup> Stevenson B. The Home book of Proverbs, Maxims and familiar phrases. – New York, 1948. – P.230.

Uchinchi bobning birinchi fasli “Ingliz va o‘zbek tillarida “nodonlik” konseptini ifodalovchi leksik vositalar” deb nomlanadi. Ingliz tilida “nodonlik” konseptining kalit so‘zini tanlashda biz “donolik” konseptining kalit so‘zlari – *wise* va *wisdom* so‘zlarining antonimlariga murojaat qildik. *Wise* leksemasining qarama-qarshi ma’nosi *foolish* so‘zi bo‘lib, *wisdom* uchun *fooly* yoki *foolishness* leksemalari tanlanadi. Etimologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki<sup>38</sup>, *fool (ish) (foolish+ness)* va *fooly* so‘zlari qadimgi fransuz tilidan kelib chiqqan. *Folie* – “ahmoqlik”, “telbalik” ma’nolarini bildirib, ularning ingliz tilida paydo bo‘lishi XIII-XIV asrlarga to‘g‘ri keladi va *dysig*, *stunt*, *doe* shakllarida qo‘llanilgan. Lug‘atlarda keltirilgan tavsiflar asosida aytishimiz mumkinki, har ikki leksema ham o‘zining etimoniga xos “ahmoqlik” va “aqlning yetishmasligi” kabi motivatsion belgilarini saqlab qolgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan *fool* leksemasining asosiy belgilariga qo‘shimcha belgilar qo‘shilgan. Izohli lug‘at ma’lumotlariga tayanib, ingliz tilidagi *foolishness* va o‘zbek tilidagi *nodonlik* leksemalarining quyidagi konseptual belgilarini aniqladik va jadval ko‘rinishida aks ettirdik.

### 3.1-jadval. *Foolishness* va *nodonlik* leksemalarining konseptual belgilari

No	Leksik ma’nolar	Foolishness	Nodonlik
1.	Donolikning yetishmasligi	+	+
2.	Fikrlar va xatti-harakatlarning bema’niligi	+	+
3.	Aql-idrokning yetishmasligi	+	+
4.	Maqsadsiz qurilgan bino yoki foyda keltirmaydigan xarid	+	–
5.	Bilimsizlik	–	+

“*Foolishness/nodonlik*” konsepti tilda quyidagi verbal va noverbal vositalar orqali voqelantiriladi:

**I. Morfologik vositalar** (morfemalar). **ing.** *fool* – *be+fool*, *fool+s*, *fool+ed*, *fool+ing*, *fool+ery*, *foolish* – *foolish+ness*, *foolish+ly*, *foolish+nest*; **o‘z** *nodon* – *nodon+roq*, *nodon+lik*, *nodon+larcha*.

**II. Leksik vositalar** (leksemalar): 1) ot bilan: **ing.** *insanity*, *absurdity*, *madness*, *dullness*, *stupidity*, *thickness*, *witlessness*; **o‘z.** *ahmoqlik*, *telbalik*, *befarosatlik*, *laqmalik*, *ovsarlik*, *kaltafahmlilik*, *johillik*; 2) sifat bilan: **ing.** *idiotic*, *stupid*, *silly*, *half-witted*, *brainless*, *mindless*, *crazy*, *unreasonable*; **o‘z.** *telba*, *esvos*, *betamiz*, *go‘l*, *kallavaram*, *kaltabin*, *uquvsiz*, *savdoyi*; 3) fe‘l bilan: **ing.** *blunder*, *neglect*, *mock*, *boast*, *misjudge*, *overreach*; **o‘z.** *jinnilanmoq*, *esankiramoq*, *ovsarlanmoq*, *tentaklanmoq*, *anqovsiramoq*; 4) ravish bilan: **ing.** *recklessly*, *carelessly*, *thoughtlessly*, *imprudently*, *incoherently*, *naively*, *illogically*; **o‘z.** *nodonolarcha*, *ahmoqona*, *tentaklarcha*, *telbalarcha*, *devonavor*, *johilona*.

**III. Sintaktik vositalar** (sintaksemalar): 1) so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z bilan: **ing.** *foolish behavior*, *make a stupid decision*, *laugh at foolishness*, *sort of foolishness*, *incredible stupidity*, *silly mistake*; **o‘z.** *devona bo‘lmoq*, *go‘l qilmoq*, *laqqa ishonmoq*, *challa jinni*, *bebosh daryo*, *ahmoqlarning ahmog‘i*, *jinnining jinnisi*, *latta jinnisi*, *o‘zini ovsarlikka solmoq*; 2) sentensemalar (sodda va qo‘shma gaplar) bilan: **ing.** *Wise men have their mouths in their hearts*, *fools have their hearts in their mouths* (proverb); *Every fool will be meddling* (proverb); *A fool at forty is a fool indeed* (proverb); **o‘z.**

<sup>38</sup> [www.etymonline.com](http://www.etymonline.com). [M.S.15.09.2024]

*Tubdan aql bo'lmasa, turtgan aql kor qilmas (Maqol); Kasalga davo topilsa ham, Anqovga davo topilmas (Maqol); Ahmoqning zo'ri bir joyga ikki qoqiladi (Maqol).*

**IV. Frazeologik vositalar** (frazemalar). **ing.** *have a screw loose, not the sharpest tool in the shed, a bird brain, foolish as a calf*; **o'z.** *jinni qo'yning kallasini yedingmi, alifni tayoq deydigan, ammamning buzog'iday, u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqmoq.*

**V. Tekstologik vositalar** (tekstemalar). **ing.** *The foolishness and obstinacy of the ass has caused the name to be transferred metaphorically to human beings; and the fifth proposition of Book<sup>39</sup>; You know the value of every article of merchandise, but if you don't know the value of your own soul, it's all foolishness<sup>40</sup>.* **o'z.** *Nodon odam o'z nodonligini sukut etib bildirmasa, shuning o'zi bilan ham uni oqillardan hisoblash mumkindir. Lekin nodonlik bilan sukutning ikkisi bir odamda jam bo'lmaydi (Shorasul Zunnun, "Oz-oz o'rganib dono bo'lur"); Nodoning muvahhash harzag'a bo'g'iz qirmog'i eshakning jihatsiz qichqirmogi, Mollig' nodonning demagi, oltunluq chibinning yemagi ma'lum (A.Navoiy, "Hikmatli so'zlar").*

**VI. Paralingvistik vositalar.** *Nodonlik* ko'pincha noverbal vositalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Jumladan, qosh chimirilishi, lablarning qisilishi, boshni qashlash yoki egish, barmoqlarni asabiy qimirlatish.

Biz tadqiqotimiz davomida "*foolishness*" va "*nodonlik*" konseptlari leksik verbalizatorlarini quyidagi semantik guruhlarda tahlil qildik.

#### **Foolishness:**

**stupidity** – *obtuseness, foolhardiness, witlessness, dumbness, dullness, stupidity, imprudence, mindlessness, brainlessness, boneheadedness;*

**nonsense** – *craziness, madness, absurdity, blah, silliness, nonsense, garbage, idiocy, inanity, rubbish;*

**insanity** – *madness, insanity, craziness, lunacy.*

#### **Nodonlik:**

**aqlsizlik** – *beboshlik, yengiltaklik, idroksizlik, laqmalik, kaltabinlik, galvarslik, ovsarlik, ahmoqlik, tentaklik, go'lilik;*

**bilimsizlik** – *jaholat, savodsizlik, johillik, ilmsizlik, omilik, gumrohlik;*

**jinnilik** – *anqovlik, savdoyilik, telbalik, tentaklik, esarlik, jinnilik, devonalik, esvoslik;*

**farosatsizlik** – *fahmsizlik, uquvsizlik, betamizlik, didsizlik.*

Yuqorida qayd etilgan "*foolishness/nodonlik*" konseptlarini ifodalovchi leksik birliklar konseptual maydonni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. Shu bilan bir qatorda, ushbu leksemalarni yadroviy va periferik qatlamlarga ajratishda ularning nutqda qanchalik faolligi, uslubiy betarafligi, frazeologik birliklar yasashda ishtiroki kabi bir qancha belgilarga e'tibor qaratdik. Ular asosida quyidagicha konseptual maydonni shakllantirish mumkin.

"*Foolishness*" konsepti yadrosidan: *craziness, madness, dumbness, idiocy, silliness, stupidity*; yaqin periferiyasidan: *absurdity, brainlessness, craziness, madness, dullness, insanity, inanity, mindlessness, nonsense, witlessness*; uzoq periferiyasidan: *blah, boneheadedness, foolhardiness, garbage, imprudence, lunacy, obtuseness, rubbish* leksik birliklari o'rin oladi.

<sup>39</sup> <https://sentence.yourdictionary.com> [M.S. 13.11.2024].

<sup>40</sup> <https://www.brainyquote.com/topics> [M.S. 13.11.2024].

“*Nodonlik*” konsepti yadrosini: *ahmoqlik, beboshlik, jinnilik, tentaklik*; yaqin periferiyasini: *anqovlik, didsizlik, devonalik, esvoslik, fahmsizlik, galvarslik, go‘llik, idroksizlik, ilmsizlik, kaltabinlik, laqmalik, ovsarlik, omilik, savdoyilik, savodsizlik, tentaklik, uquvsizlik, yengiltaklik*; uzoq periferiyasini: *betamizlik, didsizlik, esarlik, gumrohlik, johillik, jaholat* so‘zlari ntashkil etadi.

Ma’lumki, har bir lingvokulturema asosida muayyan lingvomadaniy kod yotadi. O‘zbek tilidagi frazeologizmlarni mana shu nuqtayi nazardan o‘rganish va ularni lingvomadaniy kodlar asosida tasnif qilish orqali o‘zbekona tafakkur modellarini yaratish, milliy-lisoniy ongga xos mexanizmlarni yoritib berish mumkin bo‘ladi<sup>41</sup>.

“*Nodonlik*” konseptining lingvomadaniy kodlar asosidagi tavsifi” deb nomlanuvchi faslda lingvokulturemalar masalasini ingliz tilidagi “*foolishness*” va o‘zbek tilidagi “*nodonlik*” konseptlarini voqelantiruvchi quyidagi madaniy kodlar misolida ko‘rib chiqamiz.

**1. Diniy antropomorfik kodlar.** Ingliz tili: *foolishness for Christ*; o‘zbek tili: *Isaning alamini Musadan olmoq*.

**2. Somatik kodlar.** Ingliz tilida: *head* (*muttonhead, fathead, airhead*); (*can’t make head nor tail, to be out of your head*); o‘zbek tilida: *bosh* (*kallavaram*) (*miya (si) achimoq, miya (si)/boshi g‘ovlab ketmoq, boshi shishib ketmoq, miya (si)ni yemoq*); *ear* – *go in one ear and out the other, to have nothing between one’s ears*; *quloq* – *u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqmoq, og‘zi qani desa, qulog‘ini ko‘rsatmoq*.

**3. Biomorfik kodlar.** Ingliz tilida: *ass* – *make an ass of one self, horse’s ass*; o‘zbek tilida: *eshak* – *otliqqa o‘zini, eshaklikka so‘zini bermaydi, eshak eshakning hidini biladi*; *calf* – *foolish as a calf*; *buzoq* – *ammamning buzog‘iday, noma‘qul buzoqning go‘shini yebdi, bir tirraqqi buzoq podani bulg‘aydi*; *goat* – *acting the goat*; *qo‘y* – *jinni qo‘yning kallasini yedingmi?*

**4. Gastronomik kodlar.** Ingliz tilida: *turnip head, cabbage head, nut* (*go nuts, as nutty as fruitcake*); o‘zbek tilida: *qovoq kalla, bodringcha ham maza-matrasi yo‘q*.

**5. Kiyim-kechak kodlar.** Ingliz tilida: *hat* (*to talk through (one’s) hat*); o‘zbek tilida: *do‘ppi* – *do‘ppiga to‘rt kun, telpakka to‘qqiz kun gapiradi, paytavaquloq*.

**6. Predmet kodlar.** Ingliz tilida: *not the brightest bulb in the box* (qutidagi eng yorqin lampochka emas), *not the sharpest knife in the drawer* (tortmadagi eng o‘tkir pichoq emas), *daft as a brush* (cho‘tkadek ahmoq), *dumb as a brick* (g‘isht kabi soqov), *as thick as two short planks* (ikkita qisqa taxta kabi qalin); o‘zbek tilida: *alifni kaltak demaydi; qornini yorsang, alif chiqmaydi; ilmning gardini yuqtirmaydi*.

Uchinchi bobning uchinchi fasli “*Maqollarda “nodonlik” konseptining ifodalanishi va lingvomadaniy tahlili*” deb nomlanadi.

Nodonlik ko‘plab madaniyatlarning maqol va matallarida takrorlanadigan, keng tarqalgan mavzu bo‘lib, ingliz va o‘zbek folklorshunosligi ham bundan mustasno emas. Har ikki tilda o‘rganilgan maqollardagi nodonlikning madaniy idrokini quyida mazmunlarda shakllantirdik: 1) nodon o‘zini fosh qiladi; 2) besabab kulish – nodonlik belgisi; 3) laqmalik – nodonlik belgisi; 4) ahmoqona ishlar – nodonning illati; 5) nodonlik – bedavo dard; 6) nodon eshak kabidir; 7) nodonning hamrohi ham nodon bo‘ladi; 8) pul topib, sarflashni bilmaslik – nodonlik belgisi; 9) nodon bosh oyoqni bezdirar; 10) nodonlar ham ba‘zan dono bo‘ladi.

<sup>41</sup> Xudoyberganova D. O‘zbek lingvomadaniyatshunosligining ustuvor vazifalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020. – B.8.

Jumladan, “laqmalik – nodonlik belgisi” semantik guruhiga kiruvchi maqollarning qisqacha lingvomadaniy tahlilini ko‘rib o‘tamiz. Ingliz tilida “*A fool’s speech is a bubble of air*” maqoli majoziy ma’noda qo‘llaniladi. “*Ahmoqning nutqi – havo pufagi*” shaklida o‘zbekchaga tarjima qilinadi. “Nutq” va “havo pufagi”, ularda bir qarashda mantiqiy bog‘liqlik yo‘qdek tuyuladi. Ammo ular o‘rtasida aloqadorlikni quyidagi tahlil misolida ko‘rsatib beramiz: havo pufagi – mo‘rt va vaqtinchalik bo‘lib, ichida hech qanday modda saqlamaydigan ashyo. Bu narsa qisqa vaqt davomida o‘zining jozibadorligi va ko‘rinishi bilan insonlarda yaxshi taassurot qoldirishi mumkin, lekin oxir-oqibat og‘irligini yo‘qotishi bilan o‘z ahamiyatini ham yo‘qotadi. Mazkur maqolning mazmunida ahmoq odamlar ko‘p gapirishi mumkin, ammo ular so‘zlarining ichi bo‘sh, sayoz va mazmunsiz, degan fikrlar ta’kidlanadi. Maqolning o‘zbek tilidagi ekvivalenti sifatida “*Ahmoqning demagi – oltin chivinning yemagi*” maqolidan foydalanish mumkin. Ushbu maqol “Agar ahmoq odam senga biror beo‘xshov gap qilsa, u bilan teng bo‘lma. Chunki ahmoq har doim ahmoqligiga boradi” degan yashirin mazmunga, implitsit ifodaga ega. Hasharotlar orasida chivin odamning ta’bini xira qilsa, nodonlar ham shunday toifadagi insonlardir.

Ingliz tilida “*foolishness*” va o‘zbek tilida “*nodonlik*” konseptlarini ifodalovchi maqollarda nodonlarga xos laqmalik, sababsiz kulish, nodonlikning bedavo dardligi har ikki xalq mentalitetiga ham xos ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ingliz maqollarida nodon ham ba’zan dono bo‘lishi mumkinligi, o‘zbeklarda esa nodon boshning oyoqqa jabr ekanligi haqidagi maqollar miqdor jihatdan ko‘p uchraydi.

## XULOSA

1. Lingvomadaniyatshunoslik insoniyat bilan bog‘liq madaniyat omiliga yo‘naltirilgan yangi fan tarmog‘i bo‘lib, tilda milliy madaniyatni aks ettirish muammolarini o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslik yangi yo‘nalish sifatida o‘z tadqiqot obyekti (til va madaniyatni bir butunlikda tadqiq qilish), predmeti (madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan til birliklari), vazifalari va yo‘nalishlariga ega.

2. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept tushunchasi madaniyat birligi sifatida qabul qilinadi va ma’lum bir madaniyat yoki xalq uchun muhim bo‘lgan tushunchalarni o‘zida aks ettiradi. Bu borada konsept haqida turlicha mulohazalar va talqinlar uchraydi, ammo ularning hech biri konseptni to‘liq izohlaydi, deb ayta olmaymiz.

3. Dissertatsiyada “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish 5 bosqichda amalga oshirildi, ya’ni konseptni ifodalovchi asosiy leksemalarning etimologiyasi aniqlanib, konseptning mazmunini ochib beruvchi so‘zlar orasidan uning yadro va periferik birliklari ajratib olindi, konseptni ifodalovchi tayanch so‘zlar leksik jihatdan tahlil qilinib, ularga dunyoning lisoniy manzarasiga ko‘ra tasniflash usullari qo‘llanildi, shuningdek, konsept ifodalovchi so‘zlarning semantik va komponentli tahlilini olib borilib, unga aloqador so‘z, ibora, frazeologik birlik va paremlar qiyoslandi. Natijada ingliz va o‘zbek xalqlarining etnik va madaniy xususiyatlariga doir o‘xshashliklar va farqlar borligi ma’lum bo‘ldi.

4. Tahlilga tortilgan konseptlarni ifodalovchi asosiy leksemalar ingliz tilida *wisdom*, o‘zbek tilida *donolik* 6 ta leksik ma’noda bir-biriga mos kelishi aniqlandi. “Ma’lum bir davrda yoki jamiyatda to‘plangan bilimlar” va “didaktik kitob” (*wisdom* leksemasi uchun) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilmagan differensial ma’nolar sifatida bayon etildi. *Foolishness* va *nodonlik* leksemalarida to‘liq tasodif 3 ta qiymatda aniqlandi: “maqsadsiz qurilgan foyda yoki foyda keltirmaydigan xarid”

(*foolishness* leksemasi uchun) va “bilimsizlik” (*nodonlik* leksemasi uchun) kabi ma’nolarini farqli belgilar sifatida qabul qilish mumkin.

5. *Donolik* va *nodonlik* barcha xalqlar konseptosferasida mavjud bo‘lgan mental birlik sanalib, universal tabiatga ega, chunki obyektiv borliqni aks ettirishda mazkur konseptlar semantikasi bilan bog‘liq bilimlarni til birliklari orqali voqelantirishni taqazo etadi. Shuning uchun, chog‘ishtirilayotgan tillarda “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlari til sathlari bo‘yicha quyidagi verbal birliklar: 1) morfemalar, 2) leksemalar, 3) frazemalar (so‘z birikmalari), 4) frazeoemalar, 5) sintaksemalar, 6) tekstemalar, 7) paremiologik birliklar hamda noverbal vositalar orqali voqelantirildi.

6. Tavsiflash, komponentlar tahlili, semantik maydon, freym kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda ingliz va o‘zbek tillarida “*wisdom / donolik*” va “*foolishness / nodonlik*” konseptlarini lisoniy voqelantiruvchi lug‘aviy birliklar va bunda bir-biriga yaqin ma’noli verbalizatorlarning semantik guruhlarini aniqlandi.

Ishimizda qayd etilgan leksikografik manbalar asosida qiyoslanayotgan konseptlar yadrosini aniqladik, yaqin va uzoq chegaradan o‘rin olgan lug‘aviy birliklar tahlil qilindi hamda ularning strukturasi modellashtirildi.

7. “*Wisdom / donolik*” va “*foolishness / nodonlik*” konseptlariga oid frazeologik birliklar diniy-mifologik, antropomorfik, somatik, biomorfik, predmetli, gastronomik, kiyim-kechak, temporal (vaqtga doir) kodlar asosida shakllantirildi. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, chog‘ishtirilayotgan tillarda frazeologizmlarda izomorf holatlar allomorf holatlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilishi ma’lum bo‘ldi.

8. Maqollar lingvopragmatik jihatdan, ya’ni til va muloqotdagi intensiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, ular kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi lingvopragmema sifatida xizmat qiladi. Lingvopragmema bu ma’lum bir ijtimoiy vaziyatda foydalanish uchun maxsus shakllangan nutqiy ifodalardir. Maqollar (*donolik* va *nodonlik* haqidagi) esa o‘zining qisqa, aniq va mazmunli shakli bilan nutqiy aktlarda axloqiy saboqlar, ogohlantirish hamda mulohazakor fikrlashni targ‘ib qiladi.

9. Tahlillarimiz doirasida aytishimiz mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida “*donolik*” va “*nodonlik*” konseptlarini ifodalovchi jami 260 ta maqollar (135 ta ingliz tilida va 125 ta o‘zbek tilida) o‘rganilib, mavzu jihatdan guruhlariga bo‘lindi hamda tahlil qilindi. *Donolik* va *nodonlik* tushunchalari tajriba va yosh, aql va tana salomatligi, ko‘p gapirish va ahmoqona ishlar qilish, sababsiz kulish va o‘zini fosh qilish kabi stereotiplar doirasida har ikki xalq maqollarida umumiy belgilarni namoyon qiladi. Dono odamning vaqti-vaqti bilan ahmoqning tashqi qiyofasiga kirishi yoki uning xatti-harakatlarini bajarishi, yoki aksincha, nodonlardan ham ba’zan dono fikrlar chiqishi mumkinligi ingliz maqollarining o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Jahlni jilovlash, nodon boshning oyoq uchun jabr ekanligi kabi belgilar ingliz tilidan farqli o‘laroq, ko‘proq o‘zbek maqollariga xos.

10. Qiyoslanayotgan konseptlar tilning nominativ vositalari – leksemalar, turg‘un o‘xshatishlar, metaforalar, frazeologik va paremiologik birliklar yordamida lisoniy voqelantirishning tahlili asosida har ikki tilda *donolik* va *nodonlik* umuminsoniy tushunchalar sifatida e’tirof etildi, lisoniy va konseptual olam manzaralarida o‘xshashliklarga ega ekanligi, ammo milliy olam manzarasida farqli jihatlarning mavjudligi kuzatildi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREES DSc.03 /30.12.2019.Phil.05.02  
AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

---

**FERGHANA STATE UNIVERSITY**

**TOJIBOEVA MOKHINUR SHERALI KIZI**

**LINGUACULTURAL STUDY OF THE CONCEPTS OF *WISDOM* AND  
*FOOLISHNESS* (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK)**

**10.00.06 – Comparative Study of Literature, Contrastive Linguistics and Translation studies  
(philological sciences)**

**ABSTRACT  
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation IN PHILOLOGY**

**Fergana – 2025**

The theme of PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the number B2023.2.PhD/Phil3580

The Dissertation has been prepared in Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and the information and Education portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

**Scientific supervisor:**

**Umarova Nargiza Rustamovna**  
Doctor of Philological Sciences, professor

**Official opponents:**

**Hoshimov Ganijon Mirzaahmedovich**  
Doctor of Philological Sciences, professor

**Khudoyberganova Durdona Sidikovna**  
Doctor of Philological Sciences, professor

**Leading organization:**

**Namangan State University**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 on awarding scientific degrees at the Fergana State University at 8<sup>00</sup>, on "26" aprel 2025 (Address: 100151, Fergana city, 105 B.Marghinoniy Street. Tel.: (993873) 244-66-02; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Fergana State University (registered with the number 498). (Address: 100151, Fergana city, 19, Murabbiylar Street. Tel.: (99873) 244-71-28).

The abstract of the dissertation was distributed on "2" aprel, 2025.  
(Registry record No. 24 dated "2" aprel 2025).



*S.M. Muminov*

**S.M. Muminov**  
Chairman of Scientific Council  
Awarding scientific degree,  
Doctor of Philological Sciences, Professor.

*M.T. Zokirov*

**M.T. Zokirov**  
Secretary of the Scientific Council,  
Awarding scientific degree,  
Candidate of Philological Sciences, Professor.

*A.G. Sabirdinov*

**A.G. Sabirdinov**  
Chairman of the scientific Seminar at the  
Scientific Council, Awarding scientific  
degree, Doctor of Philological Sciences,  
Professor.

## INTRODUCTION

(abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

**The actuality and significance of the dissertation topic.** The research of language and culture relations in World linguistics in the anthropocentric direction has further accelerated research within the fields of semantics, pragmatics, cognitive linguistics and linguoculturology. In particular, the concept-based study of linguistic interpretations of the values, lifestyles and traditions of different peoples, reflected in the landscape of the cultural world in the linguocultural aspect, attracted the attention of many linguists. After all, information transmitted and received by the means of language, that is, all knowledge about the universe, is accumulated in the human mind in the form of certain conceptual structures. In this respect, the question of the possibility of being realized in the landscape of the linguistic world of the concept world, formed on the basis of the perception of *wisdom* and *foolishness* of language communities, is considered very important. Therefore, it is of particular practical importance to define each cognitive structure within the framework of these concepts, to establish a limit of linguacognitive knowledge about them, which is reflected in the English and Uzbek national-cultural consciousness.

In the cognitive direction of World linguistics, the study of a particular concept and its conceptual structures from a linguistic point of view is considered to be one of the pressing problems, since the units that make up the conceptual space allow a cognitively complete description of the conceptual, linguistic, national-cultural picture of the reflecting universe in the consciousness of the linguistic community. From this point of view, the concept study is prioritizing in cognitive linguistics. It is theoretically relevant, especially in English and Uzbek, to define the cognitive-semantic field of the concepts of *wisdom* and *foolishness* as dualistic concepts that reflect Eastern and Western values, to describe these field units linguistically, to research in the languages being compared on the basis of modern linguistic methods of general and different aspects of concept realization.

In Uzbek linguistics, in subsequent years, special attention began to be paid to the concept problem in linguaculturological research, and a lot of research in this direction came to the field. Nevertheless, in existing studies, we cannot say that all concepts in the language concept sphere and their conceptual-linguistic structures have been fully studied. In particular, until today, the concepts of *wisdom* and *foolishness*, which are from the universal, national, cultural and most ancient structures of all languages in the landscape of the universe, have not been linguaculturologically selected as an object of study in the comparison of English and Uzbek. The interpretation of *wisdom* and *foolishness*, the fundamental concept of human philosophy in different cultures, embodies the centuries-old experiences of the two language communities, a large amount of conceptual knowledge, and these concepts can also be an interesting subject of research with their own possibilities of expression in each language. It can be said that “Uzbekistan is obliged to be globally competitive in the field of science, intellectual potential, in the field of modern personnel, High Technologies,”<sup>42</sup>

---

<sup>42</sup> President Of The Republic Of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev's appeal to the Supreme Assembly of December 22, 2017 //Folk word, December 23, 2017. –№ 258 (6952)

prioritizes linguists as well as raising fundamental research to the level of World templates. In this respect, the study of the semantic-functional, cognitive and linguistic features of the lexical doublet *wisdom* and *foolishness* in the framework of universal concepts inherent in all languages of the world is part of the urgent problems of modern linguistics.

The research of this dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks outlined in the Decrees and Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, including: Decree No. PF-4958 dated February 16, 2017, “On Further Improvement of the Postgraduate Education System”; Decree No. PF-5847 dated October 8, 2019, “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; Decree No. PF-5850 dated October 21, 2019, “On Measures to Radically Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language”; Decree No. PF-6108 dated November 6, 2020, “On Measures for the Development of Education, Upbringing, and Science in the New Era of Development of Uzbekistan”; Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”; “On Measures to Bring the Promotion of Learning Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan to a New Qualitative Stage” as well as other relevant normative-legal documents related to this activity.

**Compliance of the research with the priorities of the republic’s science and technology development.** The dissertation has been carried out in accordance with the priority direction of the development of Science and Technology “Ways of formation and implementation of a system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state”.

**The level of study of the problem.** Linguacultural issues,<sup>43</sup> concepts and their theoretical study,<sup>44</sup> methodology of conceptual analysis<sup>45</sup> from foreign scientists V.von Humboldt, W.N.Telia, V.A.Maslova, N.Alefirenko, V.N.Klokov, V.V. Krasnykh, Z.K.Sabitova, N.D.Arutyunova, A.G.Vejbitskaya, V.I.Karasik, Y.S.Stepanov, I.A.Sternin, A.I.Zinoveva, M.V. Pimenova observed in their studies. In Uzbek

---

